

O‘ZINI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINING MOHIYATI, TUZILISHI VA PEDAGOGIK TALQINI

Meyliqulov Ramazon Xudayqul o‘g‘li

Osiyo Xalqaro Universiteti, 2-kurs magistr

Annotatsiya: *Maqolada ta’lim muhitida o‘quvchilarda o‘zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. O‘zini boshqarish kompetensiyasi shaxsning o‘z faoliyatini ongli tarzda rejalashtirishi, boshqarishi va baholashi bilan bog‘liq murakkab ichki jarayon sifatida tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur kompetensiyaning tarkibiy qismlari, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdagi o‘rni, shuningdek, ta’lim jarayonida uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar asoslab berilgan. Maqola natijalari o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *o‘zini boshqarish kompetensiyasi, ta’lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiya, ichki motivatsiya, mustaqil o‘rganish.*

O‘zini boshqarish kompetensiyasining mohiyatini yoritishda ushbu tushunchaning pedagogik va psixologik asoslari, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvdagi o‘rni ilmiy dalillar asosida ochib berilishi zarur. O‘zini boshqarish, avvalo, shaxsning o‘z faoliyatini ongli tarzda rejalashtirishi, boshqarishi va baholashi bilan bog‘liq murakkab ichki jarayon sifatida talqin qilinadi. Psixologiya fanida bu hodisa insonning xatti-harakatlari, hissiyotlari, fikrlari va motivlari ustidan nazoratni ta’minlovchi mexanizm sifatida ko‘riladi. Shaxsning o‘zini anglash darajasi, irodaviy barqarorligi, ichki motivatsiyasi va maqsad sari intilishi o‘zini boshqarishning asosiy omillari sifatida qayd etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, o‘zini boshqarish shaxsning ta’lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilishi, o‘quv faoliyatini tartibga solishi, o‘zlashtirish darajasi va bilimlarini tahlil qilish kabi jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu kompetensiya o‘quvchini tashqi nazoratga ehtiyoj sezmaydigan, o‘z ustida mustaqil ishlay oladigan, maqsadlarini to‘g‘ri belgilab, ularga erishish strategiyalarini tanlay oladigan darajaga olib keladi.

Kompetensiyaviy yondashuv mezonlariga ko‘ra, o‘zini boshqarish shaxsning turli vaziyatlarda o‘z faoliyatini ongli tarzda tartibga solish, vaqt va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, his-tuyg‘ularini boshqarish, muammolarga nisbatan oqilona yondashish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiya shaxsning muloqot, bilish, o‘rganish va kasbiy faoliyatda barqaror muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi. O‘zini boshqarishning mohiyatida insonning o‘z xulq-atvori va faoliyatiga nisbatan mas’uliyat hissi mavjud bo‘lib, bu jarayonda maqsad qo‘yish, rejalashtirish, nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash va natijalarni tahlil qilish kabi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘zini boshqarishning shakllanishi shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligiga, mustaqil fikrlashiga,

mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishiga va o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonida o‘zini boshqarish kompetensiyasining ahamiyati alohida e’tiborni talab qiladi. Bu kompetensiya o‘quvchining mustaqil o‘qish qobiliyatini rivojlantiradi, o‘qituvchidan doimiy nazoratni talab qilmaydigan, o‘z bilimni muntazam boyitishga intiluvchi shaxsni shakllantiradi. Mas’uliyat hissining ortishi, o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi, o‘quvchining o‘z faoliyati natijalariga yondashuvini o‘zgartirib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘zini boshqarish o‘quvchini o‘z xatolarini tahlil qilishga, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, shaxsiy rivojlanish yo‘lini mustaqil belgilashga undaydi. Natijada o‘quvchi o‘qishga ichki motivatsiya asosida yondashadi, bu esa o‘zlashtirish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zini boshqarish kompetensiyasi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. U insonni turli hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga, vaqtini samarali boshqarishga, hissiy muvozanatni saqlashga va shaxsiy maqsadlar sari tizimli harakat qilishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyaning rivojlanishi o‘quvchilarning nafaqat o‘quv faoliyatidagi, balki kundalik hayotdagi muvaffaqiyati uchun ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois o‘zini boshqarish kompetensiyasining ilmiy-pedagogik talqini uni shaxs kamolotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tirof etadi.

O‘zini boshqarish kompetensiyasi shaxsning ichki imkoniyatlari, aqliy jarayonlari, hissiy holati va irodaviy harakatlarini uyg‘un boshqarishga asoslangan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Uning tuzilishi ko‘plab ilmiy manbalarda o‘zaro bog‘langan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat ekani qayd etilgan. Ushbu tarkibiy qismlar o‘quvchi shaxsining o‘z xulq-atvori, o‘quv faoliyati va hayotiy qarorlarini ongli tarzda boshqarish qobiliyatini ta’minlaydi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o‘zini boshqarish kompetensiyasi kognitiv, hissiy, irodaviy, amaliy va motivatsion jihatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanishi ta’kidlanadi.

Kognitiv tarkib o‘zini anglash, shaxsiy imkoniyat va cheklovlarni bilish, maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, vaqt va faoliyatni boshqarish bo‘yicha bilim va tasavvurlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ushbu tarkib o‘quvchining o‘quv faoliyati jarayonini ongli tashkil etishga, vazifalar ketma ketligini belgilashga va samaradorlikni baholashga yordam beradi. Kognitiv jihatning yetarli darajada rivojlanishi shaxsning o‘z xatti harakatlari mexanizmini chuqur tushunishiga olib keladi.

Hissiy tarkib o‘zini boshqarishda emotsional barqarorlik, hissiy kechinmalarni anglash va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyati bilan bog‘liq. O‘quvchi hissiyotlarini boshqarishni o‘rganganida o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilik oshadi, stress holatlarini yengish qobiliyati shakllanadi. Hissiy boshqaruvning rivojlangan bo‘lishi o‘quvchining muvozanatli fikrlashi, sog‘lom munosabatlar o‘rnatishi va o‘zini ijobiy ruhiy holatda ushlab turishi uchun asos bo‘ladi.

Irodaviy tarkib shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad sari qat’iy harakat qilish, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi jarayonlar bilan

bog‘liq. Irodaviy barqarorlik o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilishiga, o‘z faoliyatini tartibga solishiga va boshlagan ishini oxiriga yetkazishiga imkon yaratadi.

Amaliy tarkib o‘zini boshqarishning kundalik faoliyatda namoyon bo‘ladigan ko‘nikma va malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zini nazorat qilish, rejalashtirish, faoliyatni tashkil qilish, vaqtni boshqarish va natijalarni tahlil qilish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu tarkib o‘quvchining real vaziyatlarda o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish darajasini belgilaydi.

Motivatsion tarkib shaxsning o‘z faoliyatiga nisbatan ichki qiziqishi, rivojlanishga intilishi, maqsad sari harakat qilishga undovchi omillar yig‘indisini ifodalaydi. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan o‘quvchi o‘qishga faollik bilan yondashadi, izlanishga moyilligi oshadi va o‘z ustida ishlashni davomiy jarayon sifatida qabul qiladi.

Mazkur tarkibiy qismlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi o‘zini boshqarish kompetensiyasining to‘laqonli shakllanishini ta‘minlaydi. Ularning har biri shaxsning ta‘lim jarayonidagi mustaqilligi, mas‘uliyati, emotsional barqarorligi va samarali o‘quv faoliyati uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

O‘zini boshqarish kompetensiyasining pedagogik talqini ushbu jarayonning ta‘lim muhitida qanday shakllanishi, rivojlanishi va o‘quvchi shaxsining kamolotiga qanday ta‘sir etishini ilmiy asosda o‘rganishni nazarda tutadi. Pedagogik qarashlarda o‘zini boshqarish o‘quvchining o‘qish faoliyatini mustaqil tashkil etishi, o‘z xatti harakati va o‘quv natijalarini nazorat qila olishi, o‘z shaxsiy rivojlanishini ongli boshqarishi bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etiladi.

Yevropalik olim B Andersen o‘zini boshqarishni shaxsning o‘quv jarayonida rejalashtirish, monitoring va o‘z-o‘zini baholash kabi bosqichlar orqali amalga oshiriladigan, tashqi nazoratga kam ehtiyoj sezadigan murakkab faoliyat turi sifatida izohlagan. Psixolog A Bandura esa bu jarayonni shaxsning o‘z xatti harakatlari ustidan nazorat o‘rnatishida ichki motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchning hal qiluvchi omil ekanini ta‘kidlaydi. Ushbu qarashlar pedagogik jarayonda o‘quvchini faollik va javobgarlikka undash zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagogika fani nuqtai nazaridan o‘zini boshqarish kompetensiyasi kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllanadi. Ushbu yondashuv shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatiga urg‘u beradi. J Dellors ta‘limning asosiy maqsadi shaxsni mustaqil o‘rganish va o‘zini doimiy rivojlantirishga tayyorlash ekanini ta‘kidlar ekan, o‘quvchilarda o‘zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchini tayyor bilimni egallovchi emas, balki o‘zining ta‘lim jarayoni subyekti sifatida qaraydi. Bu esa o‘quvchining o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘z taraqqiyotini boshqarishga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvi ham o‘zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. K Rogers tomonidan ilgari surilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘quv jarayonining markazida turadi va uning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda individual rivojlanish imkoniyatlari ta‘limning asosiy

mezoni hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchining mustaqil qaror qabul qilishini, o'qishga mas'uliyati va ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Natijada shaxsning o'z ta'lim faoliyatini boshqarish qobiliyati tabiiy ravishda rivojlanadi.

Faol ta'lim metodlari, xususan loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, refleksiya va o'z faoliyatini monitoring qilish usullari ham o'zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Loyiha metodida o'quvchi maqsad qo'yish, vaqtni rejalashtirish, vazifalarni bajarish ketma ketligini belgilash va yakuniy natijalarni baholash jarayonlarida faol ishtirok etadi. Muammoli ta'lim metodida esa o'quvchi mustaqil fikrlashga, imkoniyatlarni solishtirishga, yechim topish strategiyalarini ishlab chiqishga majbur bo'ladi. Ushbu jarayonlar shaxsning ichki nazorat mexanizmlarini faollashtiradi.

Refleksiya, mustaqil o'qish va o'z-o'zini baholash o'zini boshqarish kompetensiyasining shakllanishida alohida o'ringa ega. V V Davidov refleksiyaning ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri deb talqin etib, o'quvchining o'z faoliyatiga tanqidiy qarashi va natijalarni tahlil qilishi shaxsiy rivojlanishning asosiy omili ekanini ta'kidlaydi. O'z-o'zini baholash orqali o'quvchi o'zining yetarli va yetishmayotgan jihatlari angliyaydi, kelgusi faoliyat strategiyasini belgilaydi va o'z xatti harakatlarini ongli tarzda boshqaradi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi ham ushbu kompetensiyani shakllantirishda muhim hisoblanadi. O'qituvchi yo'naltiruvchi va tashkilotchi rolini bajaradi, o'quvchi esa faol subyekt sifatida o'z o'quv faoliyatini mustaqil tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik qarashlar ta'lim jarayonida o'qituvchining nazoratchi emas, balki yordamchi, maslahatchi va rivojlantiruvchi rolini muhim deb biladi. O'quvchi esa o'z rivojlanishining bosh ijrochisi sifatida qaraladi.

Pedagogik talqinning mazmuni shuni ko'rsatadiki, o'zini boshqarish kompetensiyasi o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini tahlil qilishi, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishi va ichki motivatsiya asosida rivojlanishiga imkon beradigan ko'p qirrali jarayondir. Ta'lim jarayonida ushbu kompetensiyani rivojlantirish o'quvchini faqat bilim egasi emas, balki ongli, mas'uliyatli va o'z faoliyatini boshqara oladigan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zini boshqarish kompetensiyasi zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning mustaqil o'rganish, o'z rivojlanishini boshqarish va o'z faoliyati natijalariga mas'uliyat bilan yondashish imkonini beruvchi asosiy pedagogik kategoriya sifatida katta ahamiyatga ega. XXI asr ta'lim talablari insondan mustaqillik, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, o'zini tahlil qila olish, o'z vaqtini samarali tashkil etish kabi ko'nikmalarni talab etadi. Shu bois o'zini boshqarish kompetensiyasi zamonaviy pedagogikaning markaziy tushunchalaridan biriga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupov E. Ma'naviyat va shaxs kamoloti. Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
2. Tojiyev Q. Yoshlar ma'naviy tarbiyasining pedagogik asoslari. Toshkent: Fan, 2019.
3. G'afurov I. Shaxs kamolotida ma'naviy tarbiya. Toshkent: Sharq, 2017.
4. Saidova D. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. Toshkent: Innovatsiya, 2020.
5. Xudoyberdiyev Sh. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2021.
6. Abdullayeva N. Ta'limda refleksiya va o'z-o'zini baholash texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
7. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement. New York: Routledge, 2013.
8. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman and Company, 2012.
9. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 2006.
10. Delors J. Learning: The Treasure Within. Paris: UNESCO, 1996.
11. Панжизода Х. Ситуация насилия и притеснения в семье на примере Узбекистана. Социология и право". ISSN 2219-6242 (Print) . №3. Москва. Социология и право. 2025. Т. 17. No 3. – С. – 336-344.